

FOLKLORNING INFORMATIV EPIK JANRLARIGA DQIR

Qayumov Olim

Toshkent amaliy fanlar universiteti
professori, filologiya fanlari doktori

[https://orcid.org/0000-0003-
3716-6293](https://orcid.org/0000-0003-3716-6293)

olimkayumov@utas.uz

+998 94 632 22 42

ПО ИНФОРМАТИВНЫМ ЭПИЧЕСКИМ ЖАНРАМ ФОЛЬКЛОРА

Каюмов Олим

доктор филологических наук
профессор Ташкентского университета прикладных наук

ON INFORMATIVE EPIC GENRES OF FOLKLORE

Qaumov Olim

Tashkent University of Applied Sciences
Professor, Doctor of philological Sciences

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek folklorining tinglovchiga axborot tashishga xizmat qiluvchi kichik epik janrlari xususida mulohaza yuritilgan. Muallif folklorshunoslik fanida e’tibordan chetda qolgan zamonaviy informativ janr “mish-mish” lar haqida yangi ilmiy-nazariy xulosalarni o’rtaga tashlaydi.

Kalit so‘zlar: folklor, og‘zakilik, variantlilik, informativ, funksiya.

Аннотация: В данной статье рассмотрены малые эпические жанры узбекского фольклора, служащие для передачи информации слушателю. Автор выдвигает новые научно-теоретические выводы о “слухах”, современном информативном жанре, игнорируемом фольклористической наукой.

Ключевые слова: фольклор, словесность, вариативность, информативность, функция.

Annotation: This article examines the small epic genres of Uzbek folklore, which serve to convey information to the listener. The author puts forward new scientific and theoretical conclusions about “rumors”, a modern informative genre ignored by folklore science.

Key words: folklore, literature, variability, informativeness, function.

Kirish. Xalq og‘zaki poetik ijodi xalqimiz tomonidan og‘zaki yaratilib, avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga o‘tib keladigan asarlarni tashkil etadi. Folklor asarlarining tabiatni, o‘ziga xosligi va poetik xususiyatlari borasida izlanishlar natijasida o‘zbek folklori afsona, rivoyat, naql, ertak, doston, xalq qissalari, latifa, lof, qo‘sish, og‘zaki dramalar, askiya kabi nomarosimiy hamda qator marosim folklori janrlaridan tashkil topganligi aniqlandi.

Hozirga qadar folklorshunoslarmiz tomonidan aniqlik kiritilgan janrlar mumtoz folklorga xos janrlar sifatida qayd etiladi¹.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ma’lumki, shaharlashuv jarayoni qadimiy hayot tarzini o‘zgartiradi. Xalqimiz ijtimoiy hayotidagi yangi ma’lumotlar tashuvchi telekommunikatsion vositalarning ommalashuvi odamlarning informasion ehtiyojlarini qondirishda bir qadar

¹ Бу хакда каранг! Ўзбек фольклори очртқлари. 3 томлик.
1-2 томлар, – Тошкент, 1987.

peshqadamlik qilmoqda. Internet tizimidagi yangiliklarni turli manbalar orqali tarqalishi an'anaviy folklor ijrochiligini ma'lum ma'noda so'nishiga olib kelmoqda. Ammo xalq yashar ekan uning tafakkuri va ijodiy jarayoni to'xtab qolmaydi. Biroq rus folklorshunosi S.Yu.Neklyudov 1995-yilda e'lon qilgan maqolasida "posle folklera"—folklordan keyingi jarayon tushunchasini fanga taqdim etdi². Aksariyat olimlarimiz bu taklifni bajoni dil qabul qilishdilar. Hatto o'zbek folklorshunosligida ham postfolkloriga bag'ishlab tadqiqotlar e'lon qilindi³.

Aslida folklor ijodiy jarayon bo'lib, u xalq bilan birga doimiy yashaydi. To'g'ri, folkloarning ba'zi bir janrlari ijrochiligi so'nishi mumkin, ammo u qachonlardir yana qayta tiklanadi. Masalan, qadimda bobolarimiz tomonidan ijro etilgan tijorat qo'shiqlari o'tkan asrda deyarli unutildi. Ijtimoiy hayotimizda bozor iqtisodiyotining joriylanishi va tijoratga keng imkoniyat berilishi natijasida xalq tijorat qo'shiqlarining yana qayta ijro etilishiga guvoh bo'ldik⁴. Shu jihatdan folklordan keyingi jarayon atamasi va postfolklor tushunchasi o'zini oqlamaydi. Hatto rus folklorshunosi V.P.Anikin ham "folklordan keyingi jarayon" degan fikrga qo'shilmagan edi⁵. Keyingi davr rus folklorshunoslari klassik folklor va postfolklor singari folklorni ikkiga ajratish yo'lidan boradi. Xalq ijtimoiy hayotining barcha bosqichlarida, uning turmush tarzidan kelib chiqib tafakkurda ma'lum o'zgarishlar kechadi. Bu esa, ma'lum janrlar ijrochiligining so'nishi, boshqa janrlar ijrochiligining kuchayishiga olib keladi. S.Yu.Neklyudov folkloarning ba'zi namunalari tabiiy ijro ko'rinishidan sahnnaviy talqinga ko'chgan holatlariga nisbatan postfolklor atamasini qo'llagan.

² Неклюдов С.Ю. После фольклора // Живая старина, 1995. – № 1.

³ Рахмонов Б. "Постфольклор" истилоҳи истеъмолга киришининг ижтимоий-эстетик омиллари. Илмий хабарнома. Серия: Гуманитар тадқикотлар, 2021, № 5 (57). – Б.86-95; Яна ўша. Ўзбек халқ оғзаки ижодиёти жанрларининг постфольклор шароитидаги ҳолати ва функционал хусусиятлари. Филол.фан докт.дисс. – Тошкент, 2022.

⁴ Қаюмов О. Ўзбек халқ тижорат қўшиклари ҳақида // Тил ва адабиёт таълими, 2005 № 3.–Б.68-71.

⁵ Аникин В.П. Не постфольклор, а фольклор (к постановке вопроса о его современных традициях) // Славянская

Aslida bu xalq tomonidan o'z qadriyatlar, ma'naviy merosiga munosabat, uni qayta hayotga qaytarishning ko'rinishi. Shunday ekan, bu jarayon ham folkloriy xarakterdadir. Xalq tomonidan ijod qilinib, xalq tomonidan ijro etilgan va yana ijro etilayotgan folklor asarlarida ijrochilarning improvizatsiya qilishlari kuzatiladi. Bu esa, ijodiy – folkloriy jarayondir. Ijrochi tomonidan improvizatsiyaga uchragan asar variantlilik sari yuz tutayapti, improvizatsiya oqibatida folklor asarining yangi varianti hosil bo'layapti. Demak, bu to'laqonli folkloriy jarayon sifatida qaralmog'i lozim.

Insoniyat tarixining ilk onlaridan hozirgacha bo'lgan davrda afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa singari epik tur janrlari ijrochiligi faolligini kuzatamiz. Biroq, xalq tomonidan ijro etilib kelinadigan irim aytimlari, "mish-mish" yoki «g'iybat» singari muayyan ko'rinishdagi aytimlar ham mavjudki, o'zbek folklorshunosligida bu borada alohida tadqiqot olib borish zarurligini ko'rsatadi. Irim aytimlarining folklor janri sifatida o'rganilishi biz tomonimizdan 2001-yillarda, folklorshunos I.Yormatov tomonidan 2017-yilda, keyinroq folklorshunos N.Tursunova tomonidan 2022-yilda taklif etilgan edi⁶. Bugungi o'zbek folklorshunosligida irim, g'iybat yoki «mish-mish» kabi alohida hodisa sifatida xalqimiz tafakkurida yashab kelayotgan og'zaki ijod namunalarini tadqiq etilgani yo'q. Biz xalq nasri namunalarini kuzatishimiz va ularning janriy mansubiyati borasidagi nazariy qarashlarni tahlil qilar ekanmiz afsona, rivoyat, naql singari janrlar orasida yana bir janrning e'tibordan chetda qolayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Kichik syujetli, og'zaki yaratilib, og'zaki tarqaladigan, muallifi noaniq, bir necha variantlarga ega bo'lgan og'zaki hikoyalar negadir

традиционная культура и современный мир: Сборник материалов научно-практической конференции. Вып. 2 – Москва: Государственный республиканский центр русского фольклора, 1997 –С. 224–240.

⁶ Қаюмов О. Ирим ва мифологик талқин//Адабиёт гулшани. Илмий мақолалар тўплами. 2- китоб.– Навоий, 2001. – Б. 16-22; Ёрматов И. Ўзбек халқ ирим айтимларининг жанр хусусиятлари//Ўзбек фольклоршунослиги антологияси. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат нашриёти, 2017. – Б. 471-482; Турсунова Н. Ирим фольклор жанри сифатида // Science and innovation. 2022. № 7.– Р.81-86.

hozirga qadar folklor janri sifatida tilga olinmasdan kelgan. Bunga sabab rus folklorshunosligining nazariy qarashlari asosida o‘zbek folklorshunosligini shakllantirish tendensiyasining yetakchiligi deb hisoblayman.

Har bir millat og‘zaki ijodida keng tarqalgan «mish-mish»lar folkloarning keng ommalashgan janri sifatida e’tiborga olinmog‘i kerak. «Mish-mish» matnlari ham muayyan voqe – hodisani badiiy tasvirlagan qichik hajmli og‘zaki nasr namunasidir. «Mish-mish» matnlarida ham folklorga xos barcha xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin. «Mish-mish»lar ham xuddi afsona, rivoyatlar singari xalq tomonidan yaratiladi, muallifi noaniq, og‘zaki yaratilib, og‘zaki tarqaladi, har bir ijrochi tomonidan ijro qilinganida yangi variantlar hosil qiladi. Ba’zan epik qahramonining mashhurligiga ko‘ra, «mish-mish»larning versiyalari ham uchrashi mumkin. «Mish-mish»lar folkloarning kichik epik janrlari singari ularning ijrochisi istalgan shaxs bo‘lib, istalgan joyda ijro etilishi mumkin. «Mish-mish»ning boshqa janrlardan farqli tomoni shundaki, bunday og‘zaki matnlarda epik qahramon ijrochining zamondoshi – real hayotdagi kishi, u bilan bog‘liq voqealar ham hayotiy hodisa sifatida talqin qilinadi.

«Mish-mish»larda tasvirlangan voqealar aksariyat hollarda hayotiy uydirmaga asoslanadi. Ijro qilingan «mish-mish»lardagi tasvirlangan hodisalar tinglovchilar tomonidan haqiqat sifatida qabul qilinadi. «Mish-mish»lar informativ vazifa bajaradi. Bunday hikoyalarda epik qahramon aytuvchining zamondoshi ekanligi va kichik syujetga egaligi bu janrning tabiatini belgilovchi asosiy xususiyatlardan sanaladi.

Aslini olganda, «mish-mish»lar epik qahramoni vafot etgach, davrlar o‘tishi bilan tarixiy rivoyat shaklini oladi. Folklorshunos Z.Jumayevning aniqlashicha, tarixiy rivoyatlarda tasvirlangan voqe-hodisalar hayotiy uydirmaga asoslanadi. Tarixiy rivoyatlarning o‘ziga xosligi yana shunda ko‘rinadiki, tarixiy rivoyatlar o‘tmishda yashab o‘tgan tarixiy shaxslar haqidagi voqe – hodisalarni ifodalashga xizmat qiladi⁷. O‘zbek folklorida tarixiy

afsonalarni tadqiq etgan folklorshunos M.Raxmonova tadqiqotida tarixiy afsonalarning janr tabiatida ham tarixiy shaxslar va muhim tarixiy voqealar borasida ma’lumotni tashish yotishi qayd etiladi⁸. Masalan, Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlar ham qachonlardir Navoiy haqidagi «mish-mish» shaklida ommalashgan, ammo davrlar o‘tishi, «mish-mish»ning asosiy epik qahramoni tarixga aylanishi oqibatida avloddan-avlodga og‘zaki yetib kelgan hikoyalalar rivoyat shaklini olgan. Yoki matnda tasvirlangan voqealar xayoliy uydirmaga asoslansa afsona sifatida ommalashgan.

Folklorshunoslikda rivoyatlar roviylar tomonidan ijro etilganligi ta’kidlanadi. Xususan, folklorshunos U.Sattorov tadqiqotlarida rivoyatlarning ijrochisi qadimda roviylar bo‘lganligi qayd etiladi⁹. O‘zbek folklorida xalq nasri namunalarining tabiatি borasida uzoq vaqt izlanishlar olib borgan K.Imomov tadqiqotlarida ham rivoyatlarning maydonga kelish sabablari e’tibordan chetda qolgan¹⁰. Negadir rivoyatlarning genezisi borasida biror jiddiyroq kuzatishlar ko‘zga tashlanmaydi.

Biz xalq nasrining kichik janrlari maydonga kelishiga zamin tayyorlagan, hozirgacha folklorshunoslар tomonidan mustaqil janr sifatida e’tirof etilmay kelayotgan xalq ijodining ijro va yaruvchilik ibtidosi borasida to‘xtalishni lozim topdik. Ijro va yaratuvchilik ibtidosi deganda qadim zamoni nazarda tutayotganimiz yo‘q. Folklor ijodiy jarayon ekan har bir zamon ijro va yaratuvchilik zamoni bo‘lishi mumkin. Masalan, ayni paytda qaysidir bolalarimiz yangi zamonaviy topishmoqlar yaratib uni ijro qilmoqda.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, har qanday rivoyat dastlab voqe-hodisa sodir bo‘lgan zamonda o‘sha zamon kishilari tilida “mish-mish” yoki “g‘iybat” tarzida paydo bo‘lgan. Voqeа sodir bo‘lgan zamon odamlari tilida keng tarqalganda o‘ziga xos variantlilikka ega bo‘ladi. Ma’lum vaqt o‘tishi, voqealarning zamoniy eskirishi natijasida “mish-mish”lar tarixiy shaxs haqidagi rivoyatga aylanadi. Demak, rivoyatlarning maydonga kelishi dastlab jamiyat a’zolarining bir shaxs yoki hodisa

⁷ Жумаев З. Ўзбек халқ тарихий ривоятлари. Филол.фундаментальная наука. – Ташкент, 2005.

⁸ Рахмонова М. Ўзбек халқ тарихий афсоналари. – Ташкент, Фан, 2001. – Б. 24.

⁹ Сатторов У.Ф. Ўзбек халқ топонимик насрининг таснифи ва поэтикаси. Филол.фундаментальная наука. – Ташкент, 2023. – Б. 67.

¹⁰ Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Ташкент, Фан. 1981; Яшা ўша. Ўзбек халқ насли поэтикаси. – Ташкент, Фан, 2008.

borasidagi yangi ma'lumotni tashuvchi "mish-mish" ko'rinishida paydo bo'lib, davrlar o'tishi natijasida kishilar tafakkurida o'tmishda sodir bo'lgan hayotiy haqiqat shaklidagi rivoyat sifatida ommalashishda davom etadi.

"Mish-mish" g'iybatdan farqlanadi. Mish-mish mohiyatida tashilayotgan informatsiya yoqimli – xush xabar bo'lishi yoki yoqimsiz noxush xabar bo'lishi mumkin. Mish-mishda kichik voqeа hikoya qilinadi, ijrochi mish-mish matnida tasvirlangan hodisalar va uning epik qahramoniga nisbatan xolis munosabatda bo'ladi.

Xulosa

G'iybat- aksariyat hollarda biror shaxsning umumjamoa axloqiy me'yorlariga zid bo'lgan xattiharakati borasidagi ma'lumotni tashishga xizmat qiluvchi janr. G'iybat ijrochisi tasvirlanayotgan voqealarning epik qahramoniga nisbatan o'z nafratini ifodalashi hodisa tasvirida yaqqol ko'zga tashlanadi. Og'zaki ijro etilgan matnning salbiy mohiyat kasb etishi, ijrochilarning epik qahramonga nisbatan noxolis yondoshuvi: hasad, g'alamislik, nafrat tuyg'ularining ochiqcha ifodalanishi g'iybatning asosiy belgilaridan sanaladi. "Mish-mish"larda bunday belgililar yashirin holda, aksariyat hollarda "mish-mish" ijrochilari tasvirlanayotgan voqeа va hodisalarga nisbatan xolis pozisiyada bo'ladilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "mish-mish"da ham g'iybatda ham muayyan voqeа tasvirlanadi, muayyan hodisa haqida ma'lumot ifodalanadi. Qizig'i, tasvirlangan voqeа va hodisalarda hayotiy uydirma yetakchilik qiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, har ikkalasining ham epik qahramoni ijrochining zamondoshi, ijro paytida hayot bo'lgan shaxslardir. Masalaning ayni shu jihatni "mish-mish" hamda g'iybatlarning rivoya va afsonalardan ajratib turadi. Afsona va rivoyatlarda

tasvirlangan voyeqaning qadim zamonda bo'lib o'tganligi urg'ulanadi. Shuning uchun afsona va rivoyat janrlarining epik qahramonlari ham o'tmishda yashab o'tgan shaxslar sanaladi.

Demak, "mish-mish", g'iybat singari poetik voqelikni ifodalovchi og'zaki ijod namunalari folklorning kichik epik janrlaridir. Ular kichik epik janrlar: afsona, rivoyat, naql singari folklor tabiatiga xos barcha belgilariga ega.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Бу ҳақда қаранг! Ўзбек фольклори очертклари. 3 томлик. 1-2 томлар, – Тошкент, 1987.
2. Неклюдов С.Ю. После фольклора // Живая старина, 1995. – № 1.
3. Рахмонов Б. "Постфольклор" истилохи истеъмолга киришининг ижтимоий-эстетик омиллари. Илмий хабарнома. Серия: Гуманитар тадқикотлар, 2021, № 4. (57). – Б.86-95; Яна ўша. Ўзбек халқ оғзаки ижодиёти жанрларининг постфольклор шароитидаги ҳолати ва функционал ҳусусиятлари. Филол.фан докт.дисс. – Тошкент, 2022.
5. Қаюмов О. Ўзбек халқ тижорат қўшиклари ҳақида // Тил ва адабиёт таълими, 2005 № 3.–Б.68-71.
6. Жумаев З. Ўзбек халқ тарихий ривоятлари. Филол.фан номз.дисс. автореф. – Тошкент, 2005.
7. Рахмонова М. Ўзбек халқ тарихий афсоналари. – Тошкент, Фан, 2001. – Б. 24.
8. Сатторов У.Ф. Ўзбек халқ топонимик насрининг таснифи ва поэтикаси. Филол.фан.докт.дисс. – Тошкент, 2023. – Б. 67.
9. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Тошкент, Фан. 1981; Яша ўша. Ўзбек халқ насли поэтикаси. – Тошкент, Фан, 2008.

